

## XORIJLIKLARGA O‘ZBEK TILINI WEB 2.0 YORDAMIDA O‘QITISHNING IMKONIYATLARI

**Adilova Saodat Abdurahimovna**

Nizomiy nomidagi TDPU

O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi  
kafedrası professori v.b., p.f.n., dots

**Rezume.** Mazkur maqolada o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonida Web 2.0 texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari yoritilgan, shuningdek, o‘quv jarayonida Web 2.0 vositalaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** o‘zbek tili, til o‘qitish metodikasi, xorijiy talabalar, Web 2.0 texnologiyalari, til ko‘nikmalari, ijtimoiy tarmoqlar, “Canvas”, “Kahoot!”, “Quizlet”, “Google docs”, “Parlay”, sun‘iy intellekt.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta‘lim tizimiga ham bevosita ta‘sir qiladi. Xususan, tillarni o‘qitishda internetning yangi imkoniyatlaridan, ayniqsa Web 2.0 texnologiyalaridan foydalanish til ta‘limi samaradorligini yanada oshirishga olib keladi.

Ma‘lumki, Web 1.0 internet rivojlanishining ilk bosqichi bo‘lib, ushbu bosqichda foydalanuvchilar ma‘lumotni statik sahifalardan izlashi, topishi, o‘qishi, ko‘chirishi mumkin edi<sup>1</sup>. Web 2.0 esa internet rivojlanishining ikkinchi bosqichidir. U foydalanuvchilarning o‘zaro fikr almashinadigan, turli sohadagi tajriba bilan o‘rtoqlashadigan, o‘z kontentini yarata oladigan onlayn vositalar va platformlar markaziga aylandi. Web 2.0 o‘zining keng qamrovli ekanligi (lingvistik va madaniy aspektlar nuqtayi nazaridan), interaktivligi, sayt mazmunini foydalanuvchilar tomonidan shakllantirilishiga sharoit yaratganligi, zamonaviy yoshlar orasida e‘tibor qozonganligi jihatidan o‘zbek tili o‘qituvchilari uchun ham yangi istiqbollarni ochib beradi. Bu texnologiya o‘quv jarayonida talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantiruvchi dinamik va individuallashtirilgan o‘quv muhitlarini yaratish imkonini beradi<sup>2</sup>. Boshqacha aytganda, o‘qituvchilar o‘z talabalarini turli saytlarni mazmun bilan to‘ldirishga, saytdagi sifatli axborotni ko‘paytirishga va shu orqali egallangan til ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga undashi mumkin. Shu jihati bilan ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar, bloglar, forumlar, jamoalar, guruhlar, sharhlar, chatlar, “Canvas”, “Kahoot!”, “Quizlet”, “Google docs”, “Parlay” kabi Web 2.0 elementlari va resurslari an‘anaviy saytlar va kontent usullaridan ustun turadi.

O‘zbek tilini xorijiy talabalarga Web 2.0 texnologiyalari vositasida o‘rgatish bir qator ijobiy natijalarga olib keladi:

<sup>1</sup> Komilova Z. Web 1.0, Web 2.0, Web 3.0 texnologiyalari rivojlanishining qisqacha tarixi// O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. 2023-y. 16-son. – B. 196-197.

<sup>2</sup> Komilova Z. Web 1.0, Web 2.0, Web 3.0 texnologiyalari rivojlanishining qisqacha tarixi// O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. 2023-y. 16-son. – B. 196-197.

1. Ijtimoiy tarmoq, blog, forum, viki-loyiha kabilarda til o‘rganuvchilar shu tilda yozma tarzda fikr almashadilar. Bu esa o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun til amaliyotida faol ishtirok etish, savollar berish, fikrni qo‘llab-quvvatlash yoki qarshi fikr bildirish, bir-birlaridan o‘rganish imkoniyatini yaratadi, o‘zbek tilini o‘rganuvchilarning hamjamiyatlari shakllanishiga yordam beradi.

2. Matn, audio, video va interaktiv mashqlar kabi turli xildagi media kontentdan foydalanish o‘zbek tilini o‘rganish jarayonining qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, YouTube platformasida o‘zbek tili darslari, qo‘shiq, filmlar va boshqalarni tinglash, tomosha qilish so‘ng ularni muhokama qilish mumkin.

3. Web 2.0 texnologiyalari o‘zbek tilini istalgan vaqtda va istalgan joyda qulay tezlikda o‘rganish uchun sharoit yaratadi. Buning uchun faqat internetga ulanish kifoya. Masalan, hozirgi yoshlar onlayn lug‘atlar, tarjimonlar va til o‘rgatish ilovalari orqali o‘zbek tili bo‘yicha ma’lumot olish, yangi so‘zlarni yodlash, to‘rtta til ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarishga tobora qiziqib bormoqdalar, ya’ni ularning motivatsiyasi ortib bormoqda.

4. Web 2.0 texnologiyalari doimiy ravishda yangilanib, rivojlanib boradi. Bu esa o‘zbek tilini o‘rgatish uchun yangi usullarni vujudga keltiradi. Jumladan, sun‘iy intellektga asoslangan til o‘rgatish ilovalari va platformalari o‘zbek tilini egallash jarayonini yanada jadallashtiradi.

Quyida o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda Web 2.0 vositalaridan ayrimlarining qo‘llanilishiga doir misollar keltiriladi:

- “Canvas” ta’limni boshqarish tizimi onlayn, gibrid (aralash turdagi) va an’anaviy darslarni tashkil qilish, o‘tkazish uchun yaratilgan maxsus platformadir. “Canvas” turli fanlardan nazariy materiallarni, test va topshiriqlarni yuklash, audio-vizual materiallar yordamida ta’lim jarayonining samarali kechishini ta’minlash, xilma-xil shaklda talabalarning o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib borish imkonini beradi. Shuningdek, “Canvas” videoma’ruzalar, interfaol topshiriqlar, muhokama forumlari kabilarni o‘z ichiga olgan modulli to‘liq onlayn kurslarni ishlab chiqishda ham qo‘l keladi;

- “Facebook”, “Twitter”, “Instagram”, “WhatsApp”, “Linkedin”, “Telegram” kabi ijtimoiy tarmoqlarda til o‘rganuvchilar jamoalarini yaratish, muayyan mavzularni muhokama qilish, materiallar almashish uchun maxsus ta’lim platformalarini ishlab chiqish mumkin;

- turli bloglardan talabalar o‘rganilayotgan tilda kundalik yuritish, ommabop, ilmiy-ommabop matnlar, hatto ilmiy maqolalar yozishda foydalana oladilar. Ular tavsifiy, tasviriy, hikoya, mulohaza matnlarini yaratish orqali yozish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar;

- vikilug‘at ko‘p tilli lug‘at tuzish maqsadida tayyorlangan loyiha bo‘lib, u ko‘ngillilar tomonidan yaratiladi. Vikilug‘atda har qanday odam yangi sahifa yarata oladi, mavjud sahifalarni tahrir qila oladi. Lug‘atning aksar bo‘limlarida so‘zning izohi bilan birga uning boshqa tillarga tarjimasini, maxsus lug‘atlarda beriladigan qo‘shimcha ma’lumotlar bor<sup>3</sup>. Web 2.0 ning mazkur elementi til ta’limida hamkorlikda o‘quv materiallarini ishlab chiqish, lug‘atlar, ma’lumotlar bazalarini yaratish, ularni to‘ldirib

<sup>3</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Vikilug%CA%BBat>

borish, muayyan mavzuga tegishli atamalarning vikilug‘atini tuzish kabilar uchun keng qamrovli manba vazifasini bajara oladi;

- “Google Slides” yordamida o‘qituvchi yoki bir talaba yaratgan taqdimot boshqa talabalar tomonidan to‘ldirilishi, tahrir qilinishi mumkin. Interaktiv taqdimotlarni tayyorlash uchun esa “Prezi” dasturidan foydalaniladi. Ushbu texnologiya kichik guruhlarda ishlash, loyiha ishlarini bajarish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga jamoa bo‘lib tayyorlanishda muhim vositadir;

- “Kahoot!” musobaqa, interaktiv topshiriqlar, mavzularga mos krossvord va boshqotirmalar, o‘yin va viktorinalarni yaratish hamda Web 2.0 texnologiyalaridan foydalanishni talab qiluvchi guruh loyihalarini ishlab chiqish vositasidir. Undan tilni o‘rganuvchilarda mavzularga nisbatan qiziqish uyg‘otish, guruhda musobaqa ruhini paydo qilish maqsadida dars yoki mustaqil ta’lim jarayonida, turli tadbirlarda foydalanish tavsiya etiladi;

- “Quizlet” elektron o‘quv kartochkalari talabalarga so‘z boyligini oshirishga, imlo qoidalarini egallashga yordam beradi. Interfaol, illustrativ, animatsion, ovozli kartochkalar bilan ishlash maroqli bo‘lgani uchun ham kartochkalardagi ma’lumot o‘rganuvchilarning xotirasida saqlanib qoladi va tez orada faol leksikaga aylanadi. Shu bilan birga, elektron kartochkalarni talabaning o‘zi yarata oladi, istalgan paytda unga murojaat eta oladi<sup>4</sup>.

- “Parlay” sun‘iy intellektga asoslangan o‘quv platformasi bo‘lib, u an’anaviy yoki asinxron tarzda (ya’ni o‘qituvchi va talabalar turli joydan va turli vaqtda o‘zaro muloqotda bo‘lganda) ishlatiladi. Mazkur platforma har xil mavzularda qizg‘in bahs-munozaralar o‘tkazish<sup>5</sup>, muhokama uchun so‘rovnomalar tayyorlash, masalan, o‘zbek adabiyoti namunalariga oid debatlar tashkil qilish, o‘quv materialiga muhokama usulini integratsiya qilish uchun yordam beradi. Shu tariqa talabalarning o‘zbek tili bo‘yicha o‘qish, yozish, gapirish, tinglab tushunish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Web 2.0 texnologiyalarining o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishda katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan universal vosita ekanligini ta’kidlash mumkin. Ular xorijiy talabalarning o‘zbek tili va adabiyotini, o‘zbek madaniyatini o‘rganish motivatsiyasini oshiradi, nafaqat til ko‘nikmalarini, balki muloqot madaniyati, kompyuterda ishlash, sun‘iy intellektdan to‘g‘ri foydalanish, hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik kabi qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

---

<sup>4</sup> Boyxanov Sh.M. Paremiyalar va Quizlet internet ilovasining talabalar so‘z boyligini rivojlantirishdagi samaradorligi //Молодой ученый. -2020. -№9 (299). -B.208-211.

<https://moluch.ru/archive/299/67729/>

<sup>5</sup> Barrow E. Resource Review - Using Parlay to Facilitate Discussions.

<https://digitalcommons.georgiasouthern.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1004&context=sspeech>